

**SHAXSIY MULK HUQUQI VA UNI HIMOYA QILISHNING HUQUQIY
ASOSLARI VA METODLARINING AHAMIYATI.**

Rafikova Muattar Ravshanovna ¹

¹ Bojxona instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası boshlig'i,
bojxona xizmati podpolkovniki, pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent

Boltaboyev Og'abek Javlonbek o'g'li ¹

¹ Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi
Bojxona qo'mitasi Bojxona instituti 1-kurs kursanti.
ogabekboltaboyev@gmail.com

**MAQOLA
MALUMOTI**

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received:16.06.2025

Revised: 17.06.2025

Accepted:18.06.2025

Maqolada shaxsiy mulk huquqi va uni himoya qilishning huquqiy asoslari va metodlari tahlil qilanadi. Shuningdek, shaxsiy mulk huquqi, uning ijtimoiy ahamiyati va himoya qilish mexanizmlari, huquqiy me'yorlar va amaliyotdagi mavjud muammolar ko'rib chiqiladi.

KALIT SO'ZLAR:

Shaxsiy mulk huquqi,
huquqiy himoya,
mulkka tajovuz,
huquqiy asoslar, mulkni
qaytarish, mulk
huquqlarining buzilishi.

KIRISH. Insonning iqtisodiy erkinligi va huquqiy daxlsizligi jamiyat taraqqiyotining muhim kafolatlaridan biridir. Aynan shaxsiy mulk huquqi ana shu huquqiy-erkinliklarning asosiy ko'rinishlaridan hisoblanadi.

Shaxsiy mulk – fuqaroning o'z mehnati, daromadi yoki qonuniy asosda o'zlashtirilgan boshqa vositalar evaziga egalik qiladigan mulki bo'lib, u konstitutsiyaviy jihatdan kafolatlangan asosiy huquqlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida shaxsiy mulk huquqi davlat tomonidan tan olinadi, hurmat qilinadi va himoya qilinadi. Bu huquq fuqarolarga o'z mulkini erkin tasarruf etish, undan foydalanish va uni meros qilib qoldirish imkonini beradi. Shu bilan birga, mulk huquqining buzilishiga qarshi kurashish, uni sud yoki boshqa qonuniy vositalar orqali himoya qilish – huquqiy davlat tamoyillarining ajralmas qismidir. Shaxsiy mulk huquqining mazmun-mohiyati, u bilan bog'liq qonunchilik asoslari va uni himoya qilishning huquqiy mexanizmlari o'rganiladi. Bu esa jamiyatda fuqarolarning iqtisodiy huquqlarini mustahkamlash va adolatli huquqiy tizimni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsiy mulk huquqi - bu insonning o'z mulkini erkin tarzda boshqarish, undan foydalanish, tasarruf etish huquqidir. [1] Har bir insonning shaxsiy mulk huquqi ularning

asosiy huquqlaridan biridir, chunki bu huquq fuqarolarga ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy erkinliklarni amalga oshirish imkoniyatini beradi. O'zbekiston Respublikasida mulk huquqi davlat tomonidan tasdiqlangan huquqiy me'yorlarga asosan himoya qilinadi, ammo amaliyotda ba'zi hollarda bu huquqning buzilishi kuzatilmoqda. Shu bois, maqolada shaxsiy mulk huquqining huquqiy asoslari va uni himoya qilishning samarali metodlarini tahlil qilish muhimdir. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasiga ko'ra, har bir fuqaroga mulk huquqi taqdim etilgan va uni himoya qilish davlatning asosiy vazifalaridan biridir. Shaxsiy mulk huquqi nafaqat iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish, balki ijtimoiy tenglikni ta'minlash va fuqarolarning huquqiy ishonchini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Shaxsiy mulk huquqi va uni himoya qilishda metodlar muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular quyidagilardan iborat.

Huquqiy tahlil metodi – bu huquqiy munosabatlar, huquqiy normalar, qonunchilik hujjatlari va huquqiy holatlarni ilmiy-uslubiy yondashuv asosida o'rganish, tahlil qilish hamda ularning mazmun-mohiyatini ochib berishga qaratilgan maxsus usuldur.

bu metod yordamida quyidagilar amalga oshiriladi:

- normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuni va ularning amaliy ahamiyati aniqlanadi;
- huquqiy munosabatlar turlari va ularning tarkibiy qismlari tahlil qilinadi;
- mavjud huquqiy muammolar aniqlanadi va ularga huquqiy yechimlar taklif etiladi;
- qonunchilikdagi nomuvofiqliklar, ziddiyatlar yoki bo'shliqlar aniqlanadi;
- sud amaliyoti va boshqa huquqni qo'llash holatlari baholanadi.

Ikkinchidan, normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish metodi – bu huquqiy hujjatlarning mazmunini, tuzilishini, ularning maqsad va vazifalarini, amalda qo'llanish tartibini, boshqa normativ hujjatlar bilan o'zaro bog'liqligini ilmiy va amaliy jihatdan o'rganish va tahlil qilish jarayonidir.[3]

Ushbu tahlil quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. **Mazmuniy tahlil** – hujjatdagi huquqiy normalarning mohiyatini, ularning mazmunan qanday huquq va majburiyatlarni belgilashini aniqlash.

2. **Tuzilmaviy tahlil** – hujjatning tuzilishi, bandlar, moddalar va ularning tartibga solish mexanizmini tahlil qilish.

3. **Yuridik texnika jihatidan tahlil** – huquqiy normaning ifodalanish uslubi, aniqlik, aniqlovchanlik, tushunarlik darajasi va normativ hujjatlarda yuridik texnika qoidalariga rioya qilinganini baholash.

4. **Qonunchilikdagi muvofiqlik va zidliklarni aniqlash** – tahlil qilinayotgan hujjat boshqa normativ hujjatlar bilan qanday aloqada ekanini, ular o'rtasida ziddiyatlar yoki takrorlanishlar mavjudligini aniqlash.

5. **Amaliy qo'llanishini baholash** – hujjatning amaliyotda qanday ishlayotgani, uning samaradorligi, qo'llashdagi muammolar mavjudligini aniqlash.

Uchinchidan, solishtirish metodi (yoki qiyosiy metod) – bu huquqiy hodisa, norma, institut yoki tizimlarni o'zaro taqqoslash orqali ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlashga xizmat qiladigan ilmiy-tahliliy usuldur.

Solishtirish metodining asosiy xususiyatlari:

- Huquqiy obyektlar o'rtasidagi **umumiylik va farqlilikni** ochib beradi;
- Huquqiy institutlarning **samaradorligini baholash** imkonini yaratadi;

• Milliy qonunchilikni **xalqaro yoki xorijiy tajriba bilan solishtirish** orqali takomillashtirish yo‘llarini aniqlaydi.

To‘rtinchidan, qiyoslash metodi – bu huquqiy hodisa, norma yoki institutni boshqa davlatlar qonunchiligi, tarixiy davrlar yoki huquqiy tizimlar bilan solishtirish orqali o‘rganish usulidir.

Qiyoslash metodining asosiy mohiyati:

Huquqiy tizimlar o‘rtasidagi farq va o‘xshashliklarni aniqlash, bu orqali mavjud huquqiy institutlarning ustun yoki zaif tomonlarini ko‘rsatish, shuningdek, huquqni takomillashtirish uchun xorijiy tajribalardan foydalanish imkoniyatlarini baholashdan iborat.[4]

Ushbu metod yordamida:

• **Turli mamlakatlar qonunchiligi solishtiriladi**, masalan: O‘zbekiston mehnat qonunchiligi va Germaniya mehnat qonunchiligi;

• **Tarixiy qiyos tahlili** o‘tkaziladi – ya‘ni hozirgi va o‘tmishdagi huquqiy me‘yorlar taqqoslanadi;

• **Tizimli farqlar aniqlanadi**, masalan: anglo-sakson huquq tizimi va kontinental huquq tizimi o‘rtasidagi tafovutlar;

• **Ilg‘or xorijiy tajribalar tahlil qilinadi** va ularning milliy qonunchilikka tatbiq etish imkoniyati o‘rganiladi.

Shaxsiy mulk huquqini himoya qilish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqilgan:

1) Sud tizimini yaxshilash – mulk huquqi buzilgan hollarda sudlarning samarali ishlashi uchun maxsus huquqiy yordam tizimi va ilg‘or sud amaliyotlarini joriy etish. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini, fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta‘minlash hamda odil sudlovga erishish darajasini oshirish sud-huquq tizimini isloh qilish sohasida davlat siyosatining asosiy ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi. O‘tgan davr mobaynida sud tizimi faoliyati samaradorligini oshirish, sudyalarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish tartibini takomillashtirish, har bir ish bo‘yicha qonuniy, asoslantirilgan va adolatli sud qarori chiqarilishini ta‘minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

2) Mulkni himoya qilishni takomillashtirish – davlat tomonidan mulk huquqi buzilgan shaxslarga yordam ko‘rsatishni kuchaytirish. Xususiyl mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlarini yanada kuchaytirish, tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qo‘shimcha turtki berish, tadbirkorlik tashabbuslari va loyihalarini qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, joylarda ijtimoiy qamrov darajasini oshirish maqsadida.[5]

3) Ma‘lumot texnologiyalari yordamida huquqiy himoya – mulk huquqi buzilgan hollarda elektron ariza va sud amaliyotlarining shaffofligini oshirish. Ulardan foydalanish va ularni himoya qilish sohasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy normalarning shakllanayotgan tarmoqlararo kompleks tizimi. Qonunchilik majmuidan axborot huquqining ajralib chiqishi hozirgi zamon jamiyatida axborotlashtirish jarayonlarining kuchayishi, axborot munosabatlarining ahamiyati ortib boriyotganligi bilan bog‘liq.

Munozara bo‘limi

Mulk huquqini himoya qilish O‘zbekistonning huquqiy tizimida o‘ta muhim ahamiyatga ega, chunki bu nafaqat iqtisodiy rivojlanishni, balki fuqarolarning ishonchini ham oshiradi.

=====

Shu bilan birga, hozirgi kunda mavjud bo'lgan huquqiy bo'shliqlar va muammolarni hal qilish zarurati kuchaymoqda. Mulk huquqini himoya qilish bo'yicha qonunlarning takomillashtirilishi, sud tizimi islohoti va amaliyotda yuqori darajada adolatni ta'minlash uchun samarali mexanizmlarni ishlab chiqish kerak. O'zbekistonda amalga oshirilgan huquqiy islohotlar va xalqaro tajriba tahlili asosida, mulk huquqining himoyasi faqat qonunlar bilan cheklanmasdan, balki ijtimoiy ongni o'zgartirish va fuqarolarni huquqiy ma'rifat bilan ta'minlashni ham o'z ichiga olishi lozim. Xususan, mulk huquqining buzilishi holatlarida davlat organlarining tezkor va samarali harakat qilishini ta'minlash uchun, huquqiy yordamning ko'rsatish tizimini takomillashtirish zarur.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, Shaxsiy mulk huquqi – fuqarolarning iqtisodiy erkinligini ta'minlovchi, ularning moddiy manfaatlarini himoya qiluvchi asosiy konstitutsiyaviy huquqlardan biridir. Bu huquq fuqaroga mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish imkoniyatini beradi. Davlat tomonidan mulk huquqining tan olinishi va huquqiy jihatdan himoya qilinishi shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi barqarorlikni ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlari shaxsiy mulk huquqini kafolatlaydi va uni buzilishdan himoya qilish uchun tegishli huquqiy mexanizmlarni belgilab beradi. Shaxsiy mulk huquqining amalda to'liq ro'yobga chiqarilishi nafaqat fuqaroning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlaydi, balki mamlakatda erkin bozor munosabatlarining shakllanishiga, investitsion muhitning yaxshilanishiga ham xizmat qiladi. Shu boisdan, shaxsiy mulk huquqining huquqiy asoslarini chuqur o'rganish va uni amaliyotda to'g'ri qo'llash har bir yurist va huquqshunosning muhim vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi(155ta modda, 27ta bob, 6ta bo'lim). 2023-yil//30-aprel//54-modda.
1. Tajixanov U, Saidov A. Davlat va huquq nazariyasi//Darslik//-O'zbekiston Respblikasi IIV Akademiyasi, 2001.-B. 288.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-iyuldagi PF-6012-sonli "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.06.2020-y., 06/20/6012/0953-son;
3. B.Temirov. "Mulk huquqi buzilishi va uning oldini olishda sud amaliyoti". Jurnal of Law Studies, (2021). 12(3), 73-81
4. O'zbekiston Respublikasining 1990-yil 31-oktabrdagi PQ-152-XII-sonli "Mulk huquqi" to'g'risidagi qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 05.11.2018 y., 07/18/3995/2155-son.